

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI, UNING TA'RIFLARI VA METODIKADAN FARQI

*Karimova Raziya Sapayevna*  
*Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat*  
*salomatligi texnikumi, o'qituvchi*  
*Egamberdiyeva Nazakat Otabayevna*  
*Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat*  
*salomatligi texnikumi, o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsni tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyaning o'рни va afzallik tomonlari, pedagogik texnologiya darsning muvaffaqiyatlarini kafolotlavchi omil ekanligini, pedagogik jarayonlarni ilmiy lohihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini amaliyotga aniq va ketma-ket tatbiq qil ish xususida, pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farq bo'yicha ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье раскрываются роль и преимущества новой педагогической технологии в личностном воспитании, педагогическая технология является фактором, гарантирующим успешность урока, научное планирование педагогического процесса, его реализацию, четко и последовательно применять запланированный учебный процесс к практике, в плане педагогической работы выделены сведения о разнице между технологией и методикой.

**Annotation.** In this article, the role and advantages of new pedagogical technology in personal education, pedagogical technology is a factor guaranteeing the success of the lesson, scientific planning of pedagogical processes, its implementation, clearly and sequentially apply the planned educational process to practice, in terms of pedagogical work. information on the difference between technology and methodology is highlighted.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya tushunchasi, pedagogik texnologiya ta'riflari, metodika, pedagogik texnologiyaning metodikadan farqi, Axborot texnologiyalari, multimedia texnologiyasi, interfaollik, passiv qo'llash.

**Ключевые слова:** Понятие педагогической технологии, определения педагогической технологии, методика, отличие педагогической технологии от методики, информационные технологии, мультимедийная технология, интерактивность, пассивное применение.

**Key words:** The concept of pedagogical technology, definitions of pedagogical technology, methodology, the difference between pedagogical technology and

methodology, Information technologies, multimedia technology, interactivity, passive application.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Bu borada ancha-muncha tajriba to'plagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolatlovchi omil ekanligini ta'kidlab, pedagogik jarayonlarni ilmiy lohihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini amaliyotga aniq va ketma-ket tatbiq qilish xususida o'z fikr-mulohazalarini ommaning diqqat-e'tiboriga havola etayotir.

Pedagogik texnologiya amaliyotda bajariladigan ma'lum pedagogik tizim loyihasi ekanligi ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otadi. Odatda darsda ko'p gapiramiz, nazariy tushunchalar beramiz, biroq berayotgan ta'limimizning natijasi haqida o'ylamaymiz, uzundan-uzoq qilgan va'zxonligimiz o'quvchi yoki talabalarimizning xotirasida mustahkam saqlanib qolayapdimi, ularning ruhiyatiga ta'sir qiluvchi qanday vositalarni qo'llayapmiz, nazariyani amaliyot bilan qay darajada bog'layapmiz, bu haqda o'ylab ko'rishning mavridi yetib kelmadimikan deb o'ylanib qolamiz.

O'qituvchining Pedagogik mahorati, muloqot madaniyati, nutqning to'g'riligi, aloqaviy mahoratning talabalarga ta'siri, pedagogik nutq texnikasini xilma-xillik darajasi o'z navbatida yangi aloqaviy texnologiyaga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu jarayon o'qituvchi faoliyati va uslubiyatining turli ko'rinishlari orqali amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyat shakllari o'qituvchining talablar asosida ma'ruza, amaliy mashg'ulot davomida hikoya, erkin suhbat, muloqot-munozara darslarida namoyon bo'ladi.

Texnologiya tushunchasi pedagogika fani, ishlab chiqarish sohalariga nisbatan ancha keng qo'llanilib, «**Texnologiya**» so'zi yunoncha texne-sa'nat, logos-mahorat degan mazmuni anglatadi. Olimlarning ta'kidlashicha, «texnologiya» atamasi «bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish san'ati»ga e'tibor qaratilib, har bir davrda o'ziga xos zamonaviylik kasb etib, yangilanib, takomillashib kelgan. «**Pedagogik texnologiya**» atamasini o'qitish, ta'lim berish jarayonidagi pedagogik mahorat, san'at deb tushunish mumkin. Har qanday faoliyat yo texnologiya, yo san'at bo'lishi mumkin. San'at ichki hissiyotga, texnologiya esa fanga asoslanadi. Shunday bo'lsada, texnologiya lug'aviy ma'noda mahorat tushunchasiga yaqin bo'lib, mahorat dars o'tishning ham, san'atning ham, fanning ham mevasidir. Mantiqshunoslar har qanday mahorat ko'rinishida ichki hissiyot, his-hayajon, sezgi mujassam bo'ladi deb uqtiradilar.

Texnologiya tushunchasiga turli xil ta'riflar mavjud. Quyida bir nechtasini ko'rsatib o'tamiz:

**Texnologiya**-biror ishda, san'atda, mahoratda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi.

**Texnologiya**-ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati metodlar yig'indisi.

**Pedagogik texnologiya**-Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. (N.Saydaxmedov).

**Pedagogik texnologiya**-o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat. ( B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. (YUNESKO).

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifini keltirishimiz mumkin:

**Pedagogik texnologiya**-barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko'lamliligi, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirishimiz mumkin:

**Pedagogik texnologiya**-axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat;

**Pedagogik texnologiya**-bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

### **Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farq**

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi tufayli, uni xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtirish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo'lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi. Pedagogik texnologiya-o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

**Metodika**-o'qituvchining bilimi, ko'nikmasi, mahorati, shaxsiy sifatleri, temperamentiga bog'liq bo'lib, ma'lum shaxs o'qituvchi uchun qulay bo'lgan o'qitish usullari va yo'llari majmuidir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani

ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifimetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unmnli foydalana bilish talab etiladi.

Texnologiyalarda ko'proq prossesual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarning turg'unligi, ko'plab "agar"lar (agar o'qituvchi iste'dodli, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, agar yaxshi ota-onalar bo'lsa....) yo'qligi bilan farq qiladi. Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi.

Metod-biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb, bajarilishi talab etilayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'ldan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lga aytiladi.

Harakatni amalga oshirish usuli deb, tanlangan ma'lum yo'ldan foydalangan holda oldindan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan harakat usullariga aytiladi. Hozircha metodlar, metodikalar va texnologiyalar bitta tushuncha sifatida idrok qilinmoqda. Texnologiyalar va metodikalarni aralashtirilib yuborish shunday hollarga olib keladiki, ba'zan metodika texnologiyalar tarkibiga kirib qoladi, ba'zan esa aksincha Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni (ya'ni o'qituvchining o'quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq", 1997 y
2. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii.-M., 1998.

#### **Internet ma'lumotlar.**

1. www. "Ziyonet".uz
2. www.google.uz tarmog'idagi ma'lumotlar.